

TASVIRIY FAOLIYAT FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Ergasheva Sarvinoz Ulug‘bek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 2 – bosqich talabasi

E-mail: ergashevasarvinoz72@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat turlari, ularning mazmuni, tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda aqliy, axloqiy, estetik tarbiya turlarini rivojlantirish, irodaning sifatleri-boshlagan ishini oxiriga yetkazish, oldiga maqsad qo‘yib, o‘shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni yengish, o‘rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar haqida tushunchalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Tasviriy faoliyat, badiiy ijod, rasm chizish, estetik sezgi, san‘at asarlari, ta’lim-tarbiya jarayonlari

Respublikamizda maktabgacha ta’lim tizimini qaytadan qurish borasida olib borilayotgan tub ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar, amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlar ertangi kunimiz, qolaversa, kelajagimiz egalari bo‘lmish yoshlarga ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlikning yorqin ifodasidir. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 30 sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi qaroriga muvofiq bu sohada yangi tizim yaratildi. Yangi vazirlik oldiga maktabgacha ta’lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari davlat va nodavlat tarmog‘ini kengaytirish va moddiy – texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta’lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma’naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash vazifalari qo‘yildi.

Tasviriy faoliyat – bu bolalarni o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarini bajarishda tinmay mehnat qilishga undovchi faoliyatdir. Tasviriy faoliyat bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir predmetning katta-kichikligini, rangini, shaklini, fazoda joylashishini ajratish bu estetik sezgining bo‘laklari hisoblanadi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi – rangi, ritmi,

proporsiyani chuqurroq sezish bilan bogʻliqdir. Maktabgacha taʼlim tashkilotida tasviriy faoliyat boʻyicha ishlarni rejalashtirishda asosiy tamoyili, bu tasviriy faoliyatni taʼlim – tarbiyaviy ishning eng muhim boʻlimlaridan biri sifatida qarash hisoblanadi.[1]

Maktabgacha taʼlim tashkilotida tasviriy faoliyat mashgʻulotlarini rejalashtirish va hisobga olish zarur. Tasviriy faoliyat boʻyicha ishni maʼlum bir vaqtga rejalashtirishda, shu davrda faoliyatning boshqa turlari boʻyicha amalga oshiriladigan taʼlim-tarbiyaviy ishlarni ham nazarda tutmoq lozim. Tasviriy faoliyat boʻyicha mashgʻulotlarni rejalashtirishda, albatta tasviriy faoliyat mashgʻulotlari oʻrtasida oʻzaro bogʻliqlikni ham hisobga olmoq zarurdir. Tasviriy faoliyatning har bir turi oʻziga xos vazifalarni hal etadi, ammo qanday boʻlsa-da, ularni bir yoʻnalish, maqsad boʻyicha (tevarak-atrof, hayotning xilma-xil, oʻziga xos koʻrinishlardagi tasviri) birlashtiriladi. Tasviriy faoliyat boʻyicha ishni rejalashtirishda tarbiyachi, albatta har bir turdagi mashgʻulotlar soniga qatʼiy rioya qilishi lozim. Tasviriy faoliyat boʻyicha mashgʻulotlarni rejalashtirish, yuqoridagilardan tashqari, mashgʻulot qanday materiallar bilan oʻtkazilsa, maqsadga muvofiq boʻlishini ham tarbiyachi nazarda tutmogʻi lozim. Tasviriy faoliyat mashgʻulotlari – bu rasm chizish, loy, applikasiya, qurish-yasash mashgʻulotlaridir. Bu mashgʻulotlar maktabgacha taʼlim tashkilotining barcha guruhlarida aniq bir vaqtda, kun tartibi asosida uyushtiriladi. Hamma faoliyatlar uch qismga boʻlinadi:

- mashgʻulotning boshlanishi
- topshiriqni tushuntirish;
- mashgʻulotning borishi
- topshiriqni bolalar tomonidan bajarilishi;
- mashgʻulotning yakuni
- bolalar bilan bajarilgan topshiriqni tahlil qilish.

Maktabgacha taʼlim tashkiloti rasm faoliyatini sanʼat markazlarida rejalashtiriladi[2].

Tasviriy sanʼatning oʻziga xos murakkabliklarini tushunib, uning nozik qirralarini maktabgacha yoshdagi bolalarga ulashish mahoratiga ega boʻla oladigan tarbiyachilarni etishtirib chiqarish vazifasi turibdi. Maktabgacha taʼlim muassasalarida tasviriy faoliyat vositasida bolalarning estetik qobiliyatlarini shakllantirishda tarbiyachining oʻrni beqiyos. U chuqur bilim va yuqori malakaga ega boʻlishi, buning uchun muntazam ravishda oʻz ustida ishlashi, oʻzining ilmiy nazariy saviyasini tinimsiz koʻtarishi, ilgʻor tajribalarga tayanishi kerak.[3] Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida rasm chizishga oʻrgatish 3 yoshdan boshlanadi. Bu davrda bolalarni tasviriy faoliyatga tayyorlash davri hisoblanadi. Bu davrda

bolalar qalamni ushlab va qog'oz ustida yuritishga o'rganadi. Lekin bu prosesda rivojlanmaydi, bola qalamni to'g'ri ushlabni bilmaydi, tarbiyachi asta sekin to'g'ri ushlabga odatlantiradi, bolani bajarayotganligini emas balki, qalamning harakatini uning uchi bilan qog'oz betiga taqillatishi qiziqtiradi. Qalam bilan to'g'ri turli xil shtrixlar, nuqtalar chizadi, qog'oz betida turli harakatlar qiladi, keyin sodda chiziqalar asta sekin murakkablashadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarda bolalar asosan amaliy ish bajaradilar, san'at asarlarini bilan rasimga qarab hikoya qilish, maktabda esa tasviriy san'atning turlari rang tasvir, grafik, xaykaltaroshlik va dekorativ san'at asarlari bilan yanada chuqurroq tanishadilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat mashg'ulotlari xilma-xildir: rasm chizish, loy, applikasiya, qurishyasash mashg'ulotlari xisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida keltirilgan faoliyatlarning hammasiga katta ahamiyat beriladi. Boshlang'ich sinflarda ta'lim – tarbiya masalalarining muvaffaqiyatli xal etilishi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan tasvirlash faoliyatlari bilan uzviy ravishda olib boriladi [2]

Bolalar guruhdagi olib boriladigan tasviriy faoliyatlarda, qalam hamda mo'yqalamdan erkin foydalanishga o'z xarakterini va qo'l kuchini idora etishga o'rganadilar. Bu esa, malakani egallash, bolalarda qo'lini engil, erkin bir tekisdagi xarakat qilish xususiyatlarini rivojlantiradi. Bolalar turli shakl, kattalik, proporsiyadagi predmetlarni chizish jarayonida predmetning ish xususiyatiga karab yo'nalishni saqlash zarurligiga, predmetning kattaligiga mos ravishda xarakatlanishga o'rganadilar. Maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida materialdan tartibli foydalanishga, ularni toza saqlashga, faqat zarur materiallardan hamda ularni ishlatish yo'llarini rejalashtirishga o'rganadilar. Bu faoliyatlar bolalarda diqqatni va ko'rish xotirasini rivojlantiradi. Shunday qilib, tasviriy faoliyatlarda bolalardagi badiiy did va ijodiy qobiliyatlar o'sadi va bu orqali maktabda o'qishga tayyorlanib boriladi. Chunki bolalar predmetlar bilan uzviy bog'lanadilar, ularning o'ziga xos sifatleri, shakli, rangi, kattakichikligi bilan tanishadilar, ularni farqini, o'xshashligini aniqlaydilar, bu esa, bolalarni sensor tarbiyalashga, ko'rgazmali, obrazli fikr yuritishga imkon beradi[3]

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda tasviriy faoliyat maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Rasm chizish, loydan buyumlar yasash va applikasiya - bu tasviriy faoliyat turlari bo'lib, ularning asosiy vazifasi-tevarak atrofni obrazli aks ettirish hisoblanadi. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodaning sifatleri-boshlagan ishini oxiriga yetkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shani

bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni yengish, o'rtog'lariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi. Shunday qilib, tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida bolalardagi badiiy did va ijodiy qobiliyatlar o'sadi va bu orqali maktabda o'qishga tayyorlanib boriladi. Chunki bolalar predmetlar bilan uzviy bog'lanadilar, ularning o'ziga xos sifatlari, shakli, rangi, katta kichikligi bilan tanishadilar, ularni farqini, o'xshashligini aniqlaydilar, bu esa, bolalarni sensor tarbiyalashga, ko'rgazmali, obrazli fikr yuritishga imkon beradi. Tasviriy faoliyat bolalarni axloqiy tarbiyalaydi. Bolalar ishlarida o'z hayotida, jamiyatda bulayotgan voqea-xodisalarni aks ettiradilar, ulardan mamnun bo'ladilar, xayajonlanadilar. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodaning sifatlari-boshlagan ishini oxiriga etkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni engish, o'rtog'lariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi. Jamoa ishini yaratish jarayonida bolalarga birbiriga yordam, kelishib ishlash kabi sifatlari ishni baholash jarayonida, ularda o'rtog'larining ishga nisbatan real munosabatda bo'lish, to'g'ri baxolash, o'z ishidan va o'rtog'larining ishidan xursand bo'lish kabi axloqiy sifatlar shakllanadi.[4]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi
2. Nurmatova M.Sh. Xasanova Sh.T. "Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi". "Cho'lpon", T.:2010y.
3. Mamirova Z.U., Niyozova G.B. "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish" Science and Education"
4. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat turlari va mazmuni. Sadikova Shoista. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 8 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-333
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7393420>